O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 29 - dekabr 346-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 11 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 24-noyabrdagi “Yong‘in xavfsizligi a’lochisi” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 620-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 602-10-0-Q/23-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 24-noyabrdagi “Yong‘in xavfsizligi a’lochisi” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 620-sonli qarori hamda shu asosda qabul qilingan **Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 11 dekabrdagi 602-10-0-Q/23-sonli qarori** ijrosini ta’minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-, 25- moddalariga asosan **qaror qilaman.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 24-noyabrdagi
“Yong‘in xavfsizligi a’lochisi” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 620-sonli qarori hamda shu asosda qabul qilingan **Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 11 dekabrdagi 602-10-0-Q/23-sonli qarori** rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

Vazirlar Mahkamasining “Yong‘inlar profilaktikasi samaradorligini oshirish va yong‘in xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 4-avgustdagi 332-sonli qarorining 3-bandida:

2024-yildan boshlab har yili “Yong‘indan ogohlik” umummilliy

kampaniyasi doirasida tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida “Yong‘in xavfsizligi a’lochisi” tanlovi (keyingi o‘rinlarda — tanlov) o‘tkazib borilishi;

tanlovda ishtirok etish uchun arizalar Favqulodda vaziyatlar vazirligining maxsus elektron axborot tizimi orqali qabul qilinishi;

tanlov g‘olibi talabgorlarning yong‘in xavfsizligi talablariga javob berishini o‘rganish orqali aniqlanishi;

tanlov g‘olibiga **100 mln so‘m** miqdorida bir martalik pul mukofoti berilishi hamda uning faoliyati ikki yil davomida davlat yong‘in nazorati organlari tomonidan tekshirilmasligi;

tanlovni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar Favqulodda vaziyatlar vazirligining byudjetdan tashqari mablag‘lari hamda tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilganligi;

“Yong‘in xavfsizligi a’lochisi” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda — Nizom) ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. “Yong‘in xavfsizligi a’lochisi” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha viloyat komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov, tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (U.Maxamadjonov) bilan birgalikda Nizom asosida tuman darajasida nomzodlarning tanlovda ishtirok etishini ta’minlasin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov hamda Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘I U.Maxamadjnov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**